KIBERFIRIBGAR SHAXSI: IJTIMOIY-DEMOGRAFIK, PSIXOLOGIK VA RAQAMLI XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARINING KRIMINOLOGIK TAHLILI

Sattarov Ja'surbek Avazbekovich
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: jasur_sattarov@proacademy.uz
https://doi.org/10.5281/zenodo.21989559

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 16-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 18-avgust 2026 yil

KEYWORDS

axborot texnologiyalari, firibgarlik, kiberfiribgar, jinoyatchi shaxsi, kriminologik portret, onlayn kredit, virtual karta, ijtimoiy muhandislik, soxta vakolat, viktimologiya, antifrod, raqamli profayling.

ABSTRACT

Maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlarida aybdor shaxsning kriminologik xususiyatlari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotning markaziy g'oyasi shundan iboratki, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etuvchi shaxsni faqat "xaker", "dasturchi" yoki yuqori texnik bilimga ega sub'ekt sifatida tushunish ilmiy jihatdan tor yondashuv hisoblanadi. Sud-tergov amaliyoti bunday shaxs ko'p hollarda jabrlanuvchining ishonchiga kirish, uning shaxsiy ma'lumotlarini qo'lga kiritish, onlayn kredit, virtual karta, plastik karta yoki messenjer imkoniyatlaridan foydalanish, rasmiylik illyuziyasi yaratish hamda psixologik ta'sir o'tkazish orqali mulkiy natijaga erishishini ko'rsatadi. Maqolada jinoyatchi shaxsining ijtimoiy-demografik, motivatsion, ma'naviy-psixologik, raqamli-kompetentlik, guruhiy va viktimologik ta'sirga yo'naltirilgan belgilari tahlil qilingan. Sud hukmlari asosida "raqamli vositachi", "ijtimoiy muhandis", "soxta rasmiy maqom yaratuvchi", "opportunistik firibgar" va "rollar taqsimlangan guruhiy firibgar" tiplari ajratilgan.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida mulkiy munosabatlar tobora ko'proq masofaviy aloqa vositalari, elektron to'lov tizimlari, mobil ilovalar, onlayn kredit platformalari va virtual kartalar orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayon huquqiy muomala uchun qulaylik yaratsa-da, jinoyatchilikning ayrim shakllariga, xususan firibgarlikka yangi imkoniyatlar ham ochib bermoqda. Mazkur jinoyatlarda aldov va ishonchni suiiste'mol qilish an'anaviy mazmunini saqlab qoladi, biroq uning amalga oshirilish mexanizmi raqamli muhitga ko'chadi: jabrlanuvchi telefon, messenjer, bank ilovasi yoki plastik karta operatsiyasi orqali chalg'itiladi.

Ushbu turdagi qilmishlarni tahlil qilishda asosiy savol faqat "qilmish qanday kvalifikatsiya qilinadi?" degan masala bilan cheklanmasligi lozim. Ilmiy jihatdan muhimroq savol shundan iborat: bunday jinoyatni sodir etayotgan shaxs kim, u qanday ijtimoiy va psixologik belgilarga ega, texnologiyadan qanday maqsadda foydalanadi, jabrlanuvchi bilan qanday munosabat quryapti va uning xatti-harakatini oldindan aniqlash mumkinmi?

R.S.Altiyev firibgarlikni tizimli kriminologik tahlil qilishda eng avvalo ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsni o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Uning yondashuvida jinoyatchi shaxsi kriminologiyaning markaziy masalalaridan biri bo‘lib, bu tushuncha faqat jazoni o‘tayotgan mahkumni emas, balki jinoiy qilmish sodir etgan va qonunda belgilangan asoslarda javobgarlikdan ozod qilingan shaxsni ham qamrab oladi[1].

H.R.Ochilov kompyuter vositalaridan foydalanib o‘zgalar mulkini talon-toroj qilishni tahlil qilar ekan, mazkur jinoyatlar sabablari, sharoitlari, jinoyatchi shaxsi va profilaktika choralarini bir butun kriminologik tizim sifatida ko‘radi. Uning tadqiqotida bank plastik kartalari, naqd pulsiz hisob-kitob vositalari va kompyuter texnikasi mulkiy jinoyatlar shakllarini o‘zgartiruvchi omil sifatida baholangan[2].

Kriminologiyada jinoyatchi shaxsi muayyan qilmishni sodir etgan sub’ektning faqat biologik yoki huquqiy maqomini emas, balki uning ijtimoiy muhiti, ehtiyojlari, qadriyatlari, motivatsiyasi, huquqiy ongi, axloqiy yo‘nalishi, shaxsiy tajribasi va xulq-atvor mexanizmlarini ham qamrab oladi. I.Ismoilov, Q.R.Abdurasulova va I.Yu.Fozilov tahriridagi kriminologiya darsligida jinoyatchi tushunchasi kriminologik jihatdan kengroq talqin qilinib, unga mahkum, jinoiy qilmish sodir etgan shaxs va qonunda nazarda tutilgan asoslarda javobgarlikdan ozod qilingan shaxs ham kiritilishi ko‘rsatilgan[3].

Firibgarlik jinoyatida shaxsni tahlil qilish yanada muhim, chunki bu yerda jinoyatchi mulkka ochiq kuch ishlatish yoki yashirin ravishda egallash orqali emas, balki jabrlanuvchining irodasiga ta’sir etish yo‘li bilan erishadi. SHu ma’noda mulkka qarshi jinoyatlar haqidagi qarashlari firibgarlikda aldov va ishonchni suiiste’mol qilish jinoyatchi shaxsining asosiy xulqiy belgisi ekanini ko‘rsatadi.

Kibermuhitda mazkur belgi yangi mazmun kasb etadi. Aybdor endi faqat og‘zaki yolg‘on gapiruvchi shaxs emas; u messenjerda yozishadi, bank xodimi yoki diler obrazini yaratadi, shaxsiy ma’lumotni so‘raydi, onlayn kredit jarayonini boshqaradi, virtual kartaga tushgan mablag‘ni plastik kartaga o‘tkazadi yoki jabrlanuvchida “rasmiy jarayon ketyapti” degan tasavvurni hosil qiladi. Demak, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlikda jinoyatchi shaxsining markaziy belgilaridan biri raqamli-manipulyativ kompetentsiya hisoblanadi.

L.Koen va M.Felsonning odatiy faoliyat nazariyasiga ko‘ra, jinoyat ehtimoliy huquqbuzar, mos nishon va samarali nazoratning yo‘qligi bir vaqtda uchrashganda sodir bo‘ladi[4]. Ushbu yondashuvni kiberfiribgarlikka tatbiq etsak, aybdor shaxs “mos nishon” sifatida raqamli savodxonligi past, kredit yoki subsidiyaga muhtoj, telefon orqali berilgan ma’lumotni tekshirish ko‘nikmasi yetarli bo‘lmagan fuqaroni tanlaydi.

D.Kressi va W.S. Albrext firibgarlikni “bosim imkoniyat o‘zini oqlash” uchligi bilan izohlaydi. Kiberfiribgar shaxsida ushbu uchlik quyidagicha namoyon bo‘ladi: moliyaviy ehtiyoj yoki g‘arazli maqsad bosimni, onlayn kredit va elektron to‘lovlar imkoniyatni, “hech kim bilmaydi”, “keyin qaytarib beraman”, “jabrlanuvchining o‘zi ishondi” kabi ichki fikrlar esa o‘zini oqlashni tashkil etadi[5].

D.Kornish va R.Klarkning ratsional tanlov nazariyasi jinoyatchini hisob-kitob qiluvchi sub’ekt sifatida ko‘radi. Ushbu yondashuv kiberfiribgar shaxsi uchun juda mos: aybdor ehtimoliy foyda, aniqlanish xavfi, jabrlanuvchining murojaat qilish tezligi, pulni naqdlashtirish imkoniyati va elektron izlarni yashirish ehtimolini hisobga oladi. “*The Reasoning Criminal*” asari

ratsional tanlov yondashuvini jinoyatchilik tahlilida muhim konsepsiya sifatida shakllantirgan[6].

E.Sazerlendning differensial assotsiatsiya nazariyasi esa jinoiy xulq o‘rganiladigan, takrorlanadigan va muayyan ijtimoiy muhitda mustahkamlanadigan harakat ekanini asoslaydi[7]. Onlayn kredit orqali firibgarlik, soxta subsidiya, bank xodimi sifatida tanishtirish yoki “tanishlar orqali hal qilish” sxemalari aynan o‘rganilgan, takrorlangan va boshqalarga o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan jinoiy senariylardir.

D.S.Uoll kiberjinoyatchilikni axborot davrida jinoyatning transformatsiyasi sifatida baholaydi; uning 2024 yildagi ikkinchi nashrida kiberjinoyatchilik manzarasi sun’iy intellekt, avtomatlashgan aloqa va platforma iqtisodiyoti ta’sirida o‘zgargani ta’kidlanadi[8]. M.Yar va K.F.Staynmetts kiberjinoyatchilikni jamiyat, texnologiya va nazorat institutlari kesimida tahlil qiladi[9]. T.J.Xolt va A.M.Bossler texnologiya vositasida sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasini an’anaviy kriminologik nazariyalarni raqamli muhitga moslashtirish orqali tushuntiradi[10].

M.Batton va K.Kross kiberfiribgarlik qurbonlarini ayblash emas, balki ularning ishonch, qo‘rquv, uyalish, moliyaviy ehtiyoj va raqamli bilimsizlik holatlarini tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi[11]. Ularning “*Cyber Frauds, Scams and their Victims*” asari kiberfiribgarlikka qurbonmarkazli yondashuvni asoslashi bilan muhim ahamiyatga ega.

Kiberfiribgar shaxsining ijtimoiy-demografik portretini shakllantirishda e’tibor berish lozimki, sud-tergov amaliyotini umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik sodir etadigan shaxslarni bir xil ijtimoiy qatlamga yoki yosh guruhiga kiritish mumkin emas. Ular orasida ishsiz shaxslar, vaqtincha ishsizlar, xizmat mavqeiga ega shaxslar, rasmiy tashkilot nomi orqali ishonch uyg‘otuvchilar, avval sudlanmaganlar va ayrim hollarda jinoiy tajribaga ega sub’ektlar ham uchraydi.

2024-yil 4-oktabrdagi hukmida A.Bebitov 1981-yilda tug‘ilgan, oliy ma’lumotli, oilali, uch nafar farzandi bor, sudlanmagan, Oqoltin tumani elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i o‘rinbosari energiya resurslarini sotish bo‘limi boshlig‘i lavozimida ishlagan shaxs sifatida tavsiflangan. U fermer xo‘jaligi rahbariga elektr tarmoqlari tekshiruvi natijasida qarzdorlik hisoblangani haqida yolg‘on ma’lumot berib, ushbu “muammoni” 4 mln. so‘m evaziga tanishlari orqali hal qilib berishini va’da qilgan[12].

Bu holat aybdorning jinoiy usuli faqat telefondan foydalanishda emas, balki xizmat sohasiga oid ma’lumot, lavozim va tashkilot nomidan ishonch resursini shakllantirishda ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli bunday sub’ektni “xizmat mavqeiga tayangan ijtimoiy muhandis” sifatida baholash mumkin.

2024-yil 19-iyundagi hukmida I. 1992-yilda tug‘ilgan, o‘rta ma’lumotli, oilali, vaqtincha ishsiz, muqaddam sudlanmagan; Ch. esa 2002-yilda tug‘ilgan, o‘rta ma’lumotli, bo‘ydoq, vaqtincha ishsiz, muqaddam sudlanmagan shaxs sifatida ko‘rsatilgan. Ular chegaradan o‘ta olmayotgan fuqarolarning vaziyatidan foydalanib, “bojxonada tanishlarimiz bor” degan va’da orqali 300 AQSh dollarini qo‘lga kiritgan[13].

Mazkur fabula “opportunistik firibgar” tipini ko‘rsatadi. U murakkab texnik vositalarni qo‘llamaydi; vaziyatni tez baholaydi, jabrlanuvchining ehtiyojini anglaydi, “tanish orqali hal qilish” kabi ishonchli ko‘ringan senariyni yaratadi.

Boyovut tuman sudining 2024-yil 22-iyuldagi hukmida aybdor o‘zini “Subsidiya” tashkiloti xodimi sifatida tanishtirib, baliqchilik fermer xo‘jaliklariga 150 mln so‘mgacha

subsidiya ajratib berishni va'da qilgan, "1 foizlik xizmat haqi" sifatida 1,5 mln so'mni plastik kartaga o'tkazdirgan va keyin telefon apparatlarini o'chirib, aloqadan g'oyib bo'lgan[14].

Ushbu holatda aybdorning ijtimoiy maqomi emas, balki u yaratgan soxta ijtimoiy rol muhim: u rasmiy tashkilot vakili sifatida namoyon bo'ladi, davlat yordami, subsidiya, xizmat haqi kabi so'zlardan foydalanadi va shu orqali jabrlanuvchida huquqiy-iqtisodiy ishonch hosil qiladi.

Shunday qilib, kiberfiribgar shaxsining ijtimoiy-demografik portreti quyidagi xususiyatlarni qamrab oladi: birinchidan, aybdor doim ham yuqori malakali axborot texnologiyalari (IT) mutaxassisi emas; ikkinchidan, u ko'pincha ishsizlik, vaqtincha daromadsizlik yoki moliyaviy ehtiyoj sharoitida harakat qiladi; uchinchidan, ba'zi hollarda xizmat mavqei yoki sohaviy bilimdan foydalanadi; to'rtinchidan, rasmiylik illyuziyasini yaratish qobiliyati uning xavfliligini oshiradi.

Kiberfiribgar shaxsining ichki harakatlantiruvchi mexanizmida g'arazli maqsad asosiy o'rin tutadi. Biroq bu g'araz jo'n mulkiy manfaat bilan cheklanmaydi; u tez daromad topish, past xavf bilan natijaga erishish, jabrlanuvchining ishonchi va raqamli savodsizligidan foydalanish, elektron pul harakatining tezligidan manfaat ko'rish kabi elementlar bilan birlashadi.

D.Kressi tomonidan firibgarlik psixologiyasini tushuntirish uchun ishlab chiqilgan yondashuvda shaxs moliyaviy yoki shaxsiy bosimni his qiladi, jinoyat sodir etish imkoniyatini ko'radi va o'z harakatini ichki jihatdan oqlashga urinadi[15]. Albrext va hammualliflar ushbu uchlikni korporativ, moliyaviy va iqtisodiy firibgarliklar tahlilida yanada rivojlantirgan[16].

Sud amaliyotida aybdorlar ko'pincha "pul kerak bo'lib qolgani", "oilaviy sharoiti og'irligi", "zararni keyin qoplamoqchi bo'lgani" yoki "pushaymonligi"ni bildirishadi. Biroq kriminologik nuqtai nazardan bunday izohlar jinoyatni oqlamaydi, balki jinoyatchi shaxsidagi o'zini oqlash mexanizmini ko'rsatadi. Aybdor o'z harakatini shaxsiy ehtiyoj bilan asoslasa-da, amalda jabrlanuvchining ishonchi va mulkiy manfaatlarini vositaga aylantiradi.

Ratsional tanlov nazariyasi nuqtai nazaridan kiberfiribgar quyidagi hisob-kitobga tayanadi: jabrlanuvchi tez ishonadi; telefon yoki messenjer orqali muloqot qilish oson; pul kartaga tushishi bilan naqdlashtirish mumkin; onlayn kredit jarayonida jabrlanuvchi barcha huquqiy oqibatlarni anglamasligi ehtimol; operatsiyadan keyin aloqani uzish yoki akkauntni yo'qotish mumkin[17].

Sazerlendning "oq yoqali jinoyatchilik" haqidagi nazariyasi ham bu yerda ahamiyatli. U jinoyatchilikni faqat ijtimoiy past qatlamlarga xos hodisa sifatida emas, balki hurmatli yoki ishonchli ko'ringan ijtimoiy maqomdan foydalangan holda sodir etilishi mumkin bo'lgan xulq sifatida talqin qiladi[18]. A.Bebitov va A.Rizayev kabi xizmat yoki kasbiy mavqega ega shaxslar ishtirok etgan fabulalar bu yondashuvning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Mertonning anomiya nazariyasiga ko'ra, jamiyatda moddiy muvaffaqiyatga kuchli intilish mavjud bo'lib, unga qonuniy yo'llar bilan erishish imkoniyati cheklangan hollarda deviant usullar paydo bo'lishi mumkin[19]. Kiberfiribgarlik aynan shunday vaziyatda "oson daromad", "tez pul", "onlayn imkoniyat" kabi g'oyalar bilan oziqlanadi. Biroq bu nazariyani mexanik qo'llash to'g'ri emas: har bir iqtisodiy qiyinchilik jinoyatga olib kelmaydi; u faqat axloqiy to'siqlar, huquqiy ong pastligi va jinoiy imkoniyat bilan qo'shilganda kriminogen omilga aylanadi.

Saykes va Matza tomonidan ishlab chiqilgan neytrallashtirish texnikalari ham kiberfiribgar shaxsini tushuntirishda muhim. Jinoyatchi "men faqat vositachilik qildim", "o'zi

ishondi", "zarar katta emas", "keyin qaytarib beraman" kabi fikrlar orqali o'z aybini ichki jihatdan yumshatadi[20]. Bunday psixologik himoya mexanizmi takroriy firibgarlik xavfini oshiradi.

Kiberfiribgar shaxsining eng muhim kriminologik belgilaridan biri ijtimoiy muhandislik qobiliyatidir. Bu yerda aybdor texnik tizimni emas, insonning ishonch mexanizmini nishonga oladi. U jabrlanuvchida qo'rquv, umid, shoshilinchlik, rasmiylik yoki huquqiy xavotir hissini uyg'otadi.

A.Bebitov ishida aybdor elektr tarmoqlari bilan bog'liq tekshiruv, qarzdorlik va sudda katta jarima xavfini tilga oladi. U jabrlanuvchiga "hal qilmasa ish sudga oshishi" va katta jarima qo'yilishi mumkinligi haqida ma'lumot berib, 4 mln so'm evaziga masalani tanishlari orqali hal qilishini va'da qiladi. Bu yerda aybdorning asosiy quroli elektr sohasidagi lavozimi, rasmiy jarayonlardan xabardorligi va qo'rquv hosil qilish qobiliyatidir. Subsidiyaga oid hukmda aybdor jabrlanuvchining iqtisodiy manfaatdorligini nishonga oladi: fermer xo'jaligi uchun 150 mln. so'mgacha subsidiya ajratish va'dasi jinoyatning psixologik yadrosiga aylanadi. "1 foizlik xizmat haqi" degan ibora rasmiy to'lovga o'xshash ko'rinish hosil qiladi. Chegaradan o'tish ishida esa aybdorlar jabrlanuvchilarning taqiq sababli Qozog'istonga o'ta olmayotgani va ishlash uchun zudlik bilan o'tishi kerakligidan foydalangan. Pasportlarni telefonga rasmga olish, kimgadir ijtimoiy tarmoq orqali yuborish va "bo'ldi, bular o'tadi" degan ovozli xabarni eshittirish jinoyatchi shaxsining sahnalashtirilgan ishonch yaratish qobiliyatini ko'rsatadi[21].

Bu holatlardan kelib chiqib, ijtimoiy muhandislikning quyidagi elementlari ajratiladi: rasmiylik illyuziyasi bank, subsidiya, bojxona, elektr tarmog'i, davlat yordami kabi tizimlar nomi orqali ishonch uyg'otish; shoshilinchlik effekti jabrlanuvchiga tekshirish uchun vaqt qoldirmaslik; vakolat simulyatsiyasi aybdorning o'zini muayyan tashkilot yoki mansabdor doira bilan bog'liq ko'rsatishi; jabrlanuvchi ehtiyojini nishonga olish kredit, subsidiya, chegaradan o'tish, jarimadan qutulish, hujjat olish; raqamli harakatni ishonch belgisiga aylantirish pasportni rasmga olish, ovozli xabar eshittirish, karta raqamini yuborish, onlayn ilova orqali harakat qilish.

Bu jihatdan kiberfiribgar shaxsining xavfliligi uning texnik malakasidan ko'ra, inson xulqini boshqarish qobiliyatida ko'proq namoyon bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlikda aybdor har doim ham dasturiy hujum amalga oshirmaydi. Sud hukmlarida ko'pincha u bank ilovasi, virtual karta, plastik karta, messenjer, telefon raqami yoki ovozli xabar kabi oddiy vositalardan foydalanadi. Ammo ushbu vositalarni jinoiy maqsadga moslashtira olishning o'zi alohida kriminologik belgi hisoblanadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudning 2024-yil 20-maydagi hukmida aybdor o'zini "Ipak Yo'li" bankida diler sifatida ko'rsatib, jabrlanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini qo'lga kiritgan, ular nomidan mobil ilova orqali onlayn kredit rasmiylashtirgan, kredit mablag'ini bank tomonidan onlayn ochilgan virtual kartaga o'tkazgan va keyin o'z plastik kartasiga o'tkazib olgan. Hukmda bir necha epizodda 800 ming so'mdan 9,9 mln so'mgacha bo'lgan kredit mablag'lari shu sxema orqali qo'lga kiritilgani aks etgan[22].

Bu holatda jinoyatchi shaxsining raqamli kompetentsiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: bank ilovasidan foydalanish; onlayn kredit jarayonini tushunish; virtual kartaga mablag' tushishini bilish; kartadan kartaga pul o'tkazish mexanizmini qo'llash; jabrlanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini jinoyat vositasiga aylantirish.

H.R.Ochilov kompyuter vositalaridan foydalanib firibgarlik sodir etishni moliya, bank muassasalari va fondlardagi mulkni aldov yo‘li bilan kompyuter texnikasi vositalari yordamida manipulyatsiya qilish orqali talon-toroj qilish sifatida tushuntirish maqsadga muvofiqligini asoslagan[23]. Bu yondashuv bugungi onlayn kredit va virtual karta orqali firibgarlik holatlari uchun ham muhim nazariy asos beradi.

Biroq zamonaviy amaliyotda “kompyuter firibgarligi” faqat kompyuter tizimiga noqonuniy kirish bilan cheklanmaydi. Ayrim hollarda aybdor tizimni buzmaydi, balki jabrlanuvchini o‘zi ma’lumot berishga yoki elektron operatsiya amalga oshirishga undaydi. Shu sababli kiberfiribgar shaxsining raqamli kompetentsiyasi ikki darajada baholanishi lozim:

texnik-kompyuter daraja axborot tizimiga ta’sir ko‘rsatish, ma’lumotni o‘zgartirish, yolg‘on axborot kiritish;

ijtimoiy-texnologik daraja inson ishonchini boshqarish orqali mobil ilova, karta, SMS-kod, onlayn kredit yoki messenjer imkoniyatlaridan foydalanish.

Hozirgi sud amaliyotida aynan ikkinchi daraja keng tarqalgan. Demak, kiberfiribgar shaxsini o‘rganishda “texnik bilim” bilan birga “texnologik vaziyatni jinoiy maqsadga moslashtirish qobiliyati” alohida tahlil qilinishi kerak.

Tahlil qilingan sud materiallari asosida axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik sodir etadigan shaxslarni quyidagi kriminologik tiplarga ajratish mumkin.

Bu tipdagi shaxs jabrlanuvchining shaxsiy ma’lumotlari, mobil ilova, onlayn kredit, virtual karta va plastik karta operatsiyalaridan foydalanadi. Uning maqsadi jabrlanuvchini bevosita pul berishga emas, balki elektron operatsiyani amalga oshirishga yoki shaxsiy ma’lumotlarni taqdim etishga undashdir. “Ipak Yo‘li” mobil ilovasi orqali kredit rasmiylashtirish fabulasi ushbu tipning amaldagi ifodasidir. Bu jinoyatchi bank tizimining umumiy ishlash tartibini tushunadi, ammo texnik buzish o‘rniga jabrlanuvchining ishonchi va ma’lumotlaridan foydalanadi. Bu shaxsning asosiy vositasi psixologik ta’sirdir. U jabrlanuvchida qo‘rquv, umid, shoshilinchlik yoki ishonch hosil qiladi. Fuqaro A.ga oid jinoyat ishida aybdor elektr qarzdorligi, tekshiruv va sudda katta jarima xavfini yaratib, jabrlanuvchini pul berishga undagan.

Bu tipdagi shaxs ko‘pincha tashkilotlar ish tartibidan yoki fuqarolarning huquqiy savodsizligidan foydalanadi. Uning xavfliligi ma’lumotni “ishonarli” ko‘rsatish qobiliyatidadir.

Mazkur shaxs o‘zini bank xodimi, subsidiya tashkiloti vakili, diler, davlat organi bilan aloqasi bor shaxs yoki rasmiy masalani hal qilib beruvchi vositachi sifatida ko‘rsatadi. Subsidiyaga oid hukmda aybdor davlat yordami va tashkilot nomi orqali ishonch hosil qilgan.

Ushbu tipdagi firibgar uchun vakolatning haqiqiy bo‘lishi shart emas. Muhimi jabrlanuvchi uni haqiqiy deb qabul qilishi. Shu bois profilaktikada fuqarolarni har qanday rasmiy taklifni mustaqil tekshirishga o‘rgatish zarur.

Bu tip vaziyatdan foydalanadi. Chegaradan o‘tish ishida aybdorlar jabrlanuvchilarning Qozog‘istonga o‘ta olmayotganini bilib, ularni “bojxonadagi tanishlar” orqali o‘tkazishni va’da qilgan.

Opportunistik shaxsning jinoiy xulqi oldindan puxta rejalashtirilmagan bo‘lishi mumkin, ammo u vaziyatni tez anglaydi va ishonchli senariy yaratadi.

Guruhiy holatlarda bir shaxs jabrlanuvchi bilan muloqot qiladi, ikkinchisi pasport yoki ma’lumotni rasmga oladi, uchinchisi ovozli xabar yoki karta operatsiyasini ta’minlaydi, yana boshqasi pulni naqdlashtirishi mumkin. Chegaradan o‘tish ishida pasportlarni rasmga olish,

ijtimoiy tarmoq orqali yuborish, ovozli xabar eshittirish va pulni olib ketish harakatlarida rollar taqsimlangani ko‘rinadi.

Bu tip profilaktika uchun eng xavfli, chunki unda jinoyat bitta shaxs harakati emas, balki kichik jinoiy senariy sifatida shakllanadi.

Firibgarlikda jinoyatchi shaxsini jabrlanuvchidan ajratilgan holda tahlil qilish to‘liq natija bermaydi. Bu jinoyatning mohiyati jinoyatchi tomonidan jabrlanuvchining ishonchi, ehtiyoji, huquqiy bilimsizligi yoki raqamli savodxonligidagi bo‘shliqdan foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Sud materiallari asosida quyidagi “jinoyatchi jabrlanuvchi” modellarini ajratish mumkin:

“Bank dileri onlayn xizmatni to‘liq tushunmaydigan mijoz” modeli. Bu yerda jinoyatchi bank infratuzilmasi haqida muayyan tasavvurga ega bo‘ladi, jabrlanuvchi esa kredit, virtual karta yoki ma’lumot berish oqibatlarini to‘liq anglamaydi.

“Subsidiya vakili davlat yordamiga umid qilgan tadbirkor” modeli. Aybdor fermer yoki tadbirkorning iqtisodiy ehtiyojini nishonga oladi, davlat yordami va rasmiy tashkilot obrazi orqali ishonch hosil qiladi.

“Xizmat mavqeiga ega shaxs huquqiy xavotirdagi fuqaro” modeli. A.Bebitov ishida jabrlanuvchi katta jarima va suddan qo‘rqitilgan, aybdor esa o‘z lavozimi va sohaviy ma’lumotidan psixologik bosim sifatida foydalangan.

“Tanishlari bor vositachi rasmiy muammosini tez hal qilmoqchi bo‘lgan shaxs” modeli. chegaradan o‘tish ishida jabrlanuvchilar taqiqdan qutulish va ishga ketish ehtiyoji sabab “tanishlar orqali hal qilish” va’dasiga ishongan.

Batton va Krossning kiberfiribgarlik qurbonlariga oid yondashuvi bu yerda muhim: jabrlanuvchini sodda yoki aybdor deb baholash o‘rniga, uning nima uchun ishongani, qaysi institutga tayangani, qanday psixologik bosimda qaror qabul qilgani va qaysi raqamli xavfsizlik ko‘nikmalari yetishmaganini tahlil qilish kerak[24].

Jinoyatchi shaxsini kriminologik tahlil qilish amaliy profilaktika uchun muhim. Chunki har bir tipga nisbatan bir xil chora qo‘llash samara bermaydi. “Raqamli vositachi”ga qarshi bank antifrod indikatorlari, “ijtimoiy muhandis”ga qarshi fuqarolarni psixologik senariylar bo‘yicha ogohlantirish, “soxta rasmiy maqom”ga qarshi tekshirish kanallari, “guruhiy firibgar”ga qarshi elektron izlar va karta harakatlarini kompleks tahlil qilish zarur.

Bank va to‘lov tashkilotlari uchun quyidagi indikatorlar muhim:

yangi onlayn kredit mablag‘ining virtual kartaga tushishi va qisqa vaqtda boshqa kartaga o‘tkazilishi;

bir telefon raqami yoki qurilma orqali bir nechta shaxs ma’lumotlaridan foydalanish;

yangi ochilgan kartaga turli shaxslardan bir xil senariy asosida mablag‘ tushishi;

mijozning odatiy operatsiyalariga mos kelmaydigan shoshilinch to‘lov;

kredit rasmiylashtirilganidan keyin darhol naqdlashtirish harakati.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun kiberfiribgar shaxsi profayli quyidagi belgilar asosida tuzilishi mumkin: messenjer yozishmalari, ovozli xabarlar, telefon raqamlari, karta rekvizitlari, bankomat videosi, elektron to‘lov yo‘nalishi, jabrlanuvchilarga aytilgan bir xil so‘zlar va jinoyatdan keyin aloqaning uzilishi.

Viktimologik profilaktikada esa fuqarolarga umumiy “ehtiyot bo‘ling” degan tavsiya emas, balki aniq hayotiy senariylar asosida tushuntirish berilishi lozim: bank xodimi SMS-kod so‘ramaydi; subsidiya olish uchun oldindan plastik kartaga pul o‘tkazilmaydi; onlayn kredit

faqat shaxsning o‘z tasdig‘i bilan rasmiylashtirilishi kerak; “tanishlar orqali hal qilib berish” va’dasi firibgarlik xavfining tipik belgisidir.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlarida aybdor shaxsni faqat “texnik bilimga ega xaker” sifatida tushunish yetarli emas. Sud-tergov amaliyoti bunday shaxs ko‘p hollarda psixologik ta’sir, rasmiylik illyuziyasi, soxta vakolat, jabrlanuvchi ehtiyoji, shaxsiy ma’lumotlar va elektron to‘lov mexanizmlarini birlashtirgan holda harakat qilishini ko‘rsatadi.

Kriminologik tahlil ushbu shaxsning besh asosiy tipini ajratish imkonini beradi: raqamli vositachi, ijtimoiy muhandis, soxta rasmiy maqom yaratuvchi, opportunistik firibgar va rollar taqsimlangan guruhiy firibgar. Ularning barchasida umumiy jihat mavjud: jabrlanuvchining ishonchi, ehtiyoji yoki raqamli savodxonligidagi bo‘shliq mulkiy natijaga erishish vositasiga aylantiriladi.

Ilmiy-nazariy jihatdan L.Koen va M.Felson jinoyat imkoniyati va nazorat zaifligini, D.Kressi va W.S. Albrext firibgarlik motivatsiyasini, D.Kornish va R.Klark hisob-kitobli jinoiy xulqni, E.Sazerlend jinoiy xulqning o‘rganilishi va ijtimoiy muhitda tarqalishini, D.S.Uoll, M.Yar, K.F.Staynmetts, T.J.Xolt, A.M.Bossler, M.Button va C.Cross raqamli muhitda jinoyatchi va jabrlanuvchi o‘rtasidagi munosabatning murakkabligini tushuntirishda muhim nazariy asos beradi.

Profilaktik nuqtai nazardan kiberfiribgar shaxsini o‘rganish antifrod tizimlarini takomillashtirish, xavfli operatsiyalarni avtomatik aniqlash, elektron izlar asosida kriminologik profayling yuritish, soxta rasmiy maqomni tekshirish kanallarini yaratish va viktimologik profilaktikani kuchaytirish uchun zarur. Bunday yondashuv jazodan keyingi reaksiyani emas, balki jinoyat imkoniyatini oldindan kamaytirishni maqsad qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Криминология. Умумий қисм: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик / И.Исмоилов, Қ.Р.Абдурасулова, И.Ю.Фозилов; масъул муҳаррир Ш.Т.Икрамов. — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. — Б. 136–137.; Алтиев Р.С. Фирибгарликнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. — Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2020. —Б. 95–146.
2. Очилов Ҳ.Р. Ўзгалар мулкини компьютер воситаларидан фойдаланиб талон-торож қилганлик учун жавобгарлик: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. — Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2017. —Б. 3–12, 132–166.
3. Криминология. Умумий қисм: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик / И.Исмоилов, Қ.Р.Абдурасулова, И.Ю.Фозилов; масъул муҳаррир Ш.Т.Икрамов. — Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. — Б. 136–137.
4. Cohen L.E., Felson M. Social Change and Crime Rate Trends: A Routine Activity Approach // American Sociological Review. — 1979. — Vol. 44, No. 4. — P. 588–608. — URL: https://faculty.washington.edu/matsueda/courses/587/readings/Cohen%20and%20Felson%201979%20Routine%20Activities.pdf
5. Cressey D.R. Other People’s Money: A Study in the Social Psychology of Embezzlement. — Glencoe, Illinois: Free Press, 1953. — 191 p. https://books.google.com/books/about/Other_People_s_Money.html?id=FgAFAAAAMAAJ;

Albrecht W.S., Albrecht C.O., Albrecht C.C., Zimbelman M.F. Fraud Examination. — 6th ed. — Boston: Cengage Learning, 2018. — ISBN 978-1337619677. https://www.cengage.com/c/fraud-examination-6e-albrecht-albrecht-albrecht-zimbelman/9781337619677/
6. Cornish D.B., Clarke R.V. The Reasoning Criminal: Rational Choice Perspectives on Offending. — New York: Springer-Verlag, 1986. — 246 p. https://books.google.com/books/about/The_Reasoning_Criminal.html?id=VfmmAgAAQBAJ
7. Sutherland E.H. White Collar Crime. — New York: Dryden Press, 1949. — 272 p. https://books.google.com/books/about/White_Collar_Crime.html?id=3jEZAAAAIAAJ
8. Wall D.S. Cybercrime: The Transformation of Crime in the Information Age. — 2nd ed. — Cambridge: Polity Press, 2024. — 356 p. — ISBN 978-0745653525. — URL: https://www.politybooks.com/bookdetail?book_slug=cybercrime-the-transformation-of-crime-in-the-information-age-2nd-edition--9780745653525
9. Yar M., Steinmetz K.F. Cybercrime and Society. — 4th ed. — London: SAGE Publications Ltd, 2023. — 408 p. — ISBN 978-1529772067. — URL: https://uk.sagepub.com/en-gb/eur/cybercrime-and-society/book277815
10. Holt T.J., Bossler A.M. Cybercrime in Progress: Theory and Prevention of Technology-Enabled Offenses. — London; New York: Routledge, 2016. — 236 p. — DOI: 10.4324/9781315775944. — URL: https://www.routledge.com/Cybercrime-in-Progress-Theory-and-prevention-of-technology-enabled-offenses/Holt-Bossler/p/book/9781138066144
11. Button M., Cross C. Cyber Frauds, Scams and Their Victims. — London; New York: Routledge, 2017. — DOI: 10.4324/9781315679877. — URL: https://www.routledge.com/Cyber-Frauds-Scams-and-their-Victims/Button-Cross/p/book/9781138931206
12. Жиноят ишлари бўйича туман судининг 2024 йил 4 октябрдаги 1-1207-2401/106-сон ҳукми
13. Жиноят ишлари бўйича туман судининг 2024 йил 19 июндаги 1-1208-2401/140-сон ҳукми
14. Жиноят ишлари бўйича туман судининг 2024 йил 22 июлдаги 1-1209-2401/79-сон ҳукми
15. Cressey D.R. Other People's Money: A Study in the Social Psychology of Embezzlement. — Glencoe, Illinois: Free Press, 1953. — 191 p. https://books.google.com/books/about/Other_People_s_Money.html?id=FgAFAAAAMAAJ
16. Albrecht W.S., Albrecht C.O., Albrecht C.C., Zimbelman M.F. Fraud Examination. — 6th ed. — Boston: Cengage Learning, 2018. — ISBN 978-1337619677. https://www.cengage.com/c/fraud-examination-6e-albrecht-albrecht-albrecht-zimbelman/9781337619677/
17. Cornish D.B., Clarke R.V. The Reasoning Criminal: Rational Choice Perspectives on Offending. — New York: Springer-Verlag, 1986. — 246 p. https://books.google.com/books/about/The_Reasoning_Criminal.html?id=VfmmAgAAQBAJ
18. Sutherland E.H. White Collar Crime. — New York: Dryden Press, 1949. — 272 p. https://books.google.com/books/about/White_Collar_Crime.html?id=3jEZAAAAIAAJ

19. Merton R.K. Social Structure and Anomie // American Sociological Review. — 1938. — Vol. 3, No. 5. — P. 672–682.
20. Sykes G.M., Matza D. Techniques of Neutralization: A Theory of Delinquency // American Sociological Review. — 1957. — Vol. 22, No. 6. — P. 664–670.
21. Жиноят ишлари бўйича туман судининг 2024 йил 4 октябрдаги 1-1207-2401/106-сон ҳукми; Жиноят ишлари бўйича туман судининг 2024 йил 19 июндаги 1-1208-2401/140-сон ҳукми; Жиноят ишлари бўйича туман судининг 2024 йил 22 июлдаги 1-1209-2401/79-сон ҳукми
22. Жиноят ишлари бўйича туман судининг 2024 йил 20 майдаги 1-1209-2401/49-сон ҳукми
23. Очилов Ҳ.Р. Ўзгалар мулкини компьютер воситаларидан фойдаланиб талон-торож қилганлик учун жавобгарлик: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. — Тошкент: Тошкент давлат юридик университети, 2017. —Б. 3–12, 132–166.
24. Button M., Cross C. Cyber Frauds, Scams and Their Victims. — London; New York: Routledge, 2017. — DOI: 10.4324/9781315679877. — URL: https://www.routledge.com/Cyber-Frauds-Scams-and-their-Victims/Button-Cross/p/book/9781138931206